

DORIVOR LAGochILUSNING O'SISHI VA RIVOJLANISHI.

Oltiboyeva Mavsuma G'ulom qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrsi assistenti

Annotatsiya *Lagochilus inebrians* - Labguldoshlar oilasining *Lagochilus* turkumiga mansub bo'lib, Bunge tomonidan tur sifatida aniqlangan. *Lagochilus inebrians* qimmat-baho dorivor o'simlik bo'lib, uning bargi va gul qismlari (gulkosa va gultojlar), lagoxilin moddasiga juda boy bo'ladi. Shu sababli ilmiy medidtsinada qon to'xtatuvchi preparat sifatida foydalaniladi. Pomir-Oloy to'g' tizmasining neoendemik o'simliklaridan hisoblanib, hozirda tabiatda ularning soni kamayib ketmoqda va shu sababli muhofaza qilishga muhtoj o'simliklardan. Bu asosan Nurota tog'tizmalari, janubiy qiyaliklarida ko'p uchraydi.

Kalit so'zlar: *Lagochilus inebrians*, Lamiaceae, organogenez, rasimoz.

Growth and development of medicinal *Lagochilus*.

Annotation *Lagochilus inebrians* belongs to the genus *Lagochilus* of the family of sedges and was identified as a species by Bunge. *Lagochilus inebrians* is a valuable medicinal plant, its leaves and flower parts (calyx and corolla) are very rich in the substance lagochilin. For this reason, it is used as a blood-stopping drug in scientific medicine. It is considered one of the neo-endemic plants of the Pamir-Aloy mountain range, and now its number is decreasing in nature, and therefore it is one of the plants in need of protection. It is mostly found on the southern slopes of the Nurota mountain range.

Key words: *Lagochilus inebrians*, Lamiaceae, organogenesis, racemosis.

Keying yillarda o'simliklardan olinadigan tabiiy dori darmonlarga bo'lgan ehtiyoj ortayotganligi yaxshi ma'lum. Respublikamiz florasida 4500 dan ortiq o'simliklar o'chrab shundan 600 ga yaqini dorivorlik hususiyatiga egadir. Xuddi shunday o'simliklardan *lagochilus inebrians* B. hisoblanadi. Bu tur yalpizdoshlar oilasi (Lamiaceae) *lagochilus* turkumiga mansub ko'p yillik o'simlikdir. Uning bo'yi 30-60 sm

poyasi to'rt qirrali, shoxlangan va yog'ochlashgan, barglari poyada qisqa band orqali qarama qarshi joylashgan uch besh bo'lakka bo'lingan, to'rsimon tomirlagan uchki qismi o'tkirlashgan. Barglari un sepilgandek oppoq bo'ladi sababi unda „lagoxilin“ moddasi ko'p bu o'simlik iyun-iyulda gullab iyul avgustda pishib yetiladi. Urug'i jigarrang qora rangda bo'lib 1000 dona urug'ining o'irligi 35,02gr ni tashkil etadi.

Lagochilus turkumi turlarining ichida *lagochilus inebrians* Bungening dorivorlik xususiyati yuqori baholanadi. Uning yer ustgi qismida tayyorlangan damlamasi gepertoniya va gemofiliya kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

turning o'z vegetatsiyasini mart oyining o'rtalaridan boshlanadi. O'sish davri to sentiyabrning oxirigacha davom etadi. O'sish boshidan sekinroq kechadi. Aprel va may oyida o'sish ancha tezlashadi.

G'unchalash davri. May oyining 15-20 kunlarida boshlanadi va bu g'unchalash davri iyul oyining boshlarigacha davom etadi. Gullash davri esa iyun oyining oxiridan boshlab to avgust oyining boshlarigacha davom etadi. Bunda gullash iyul oyi ancha jadallashadi.

Mevalash davri esa iyul oyining oxirlaridan boshlanadi. Mevalash sentiyabr oyining o'ninchilarigacha davom etadi. Mevalarning yetilishi esa avgust oyining o'rtalarida boshlanadi. Mevalar sentiyabr oyining oxirlarigacha pishib yetila boshlaydi. Bunda gullash mevalash pastdan tepaga qarab boradi.

Tinim davri esa oktyabr oyining boshlarida tinim davri o'tadi bunda o'simlik yer o'stki qismi quriydi. Mevalari yerga tukila boshlaydi. *Lagochilus*ning mevasi kusakcha bo'lib ko'sakcha ichida 4 tadan urug' bo'ladi. So'ng ustki qismi qurub tukilib yer ostki ildizi qushilib qoladi va bu yil baxorda yangi poyalar o'sib chiqa boshlaydi. Urug'larini tinim davrini o'tkazgandan keyin bahor oyida una boshlaydi. *Lagochilus inebrians* asosan urug'danva partikulyasiya yo'li bilan ko'payadi. Biz o'rganayotgan obyektlarimizda gul elementlari erta bahorda boshlanadi. Fevral oyining o'rtasidayoq, o'sish konusining bo'rtishi va murtak poyasining maxsus to'qimalarining hosil bo'lishi boshlanadi. Murtak to'qimalari va bo'g'im oraliqlarida ikkilamchi bo'rtmachalar hosil bo'ladi ulardan keyinchalik ikkilamchi gul o'qlari rivojlanadi. O'sish konusida murtak bo'rtmalari hosil bo'lish davrida pastki bo'rtmachalar kattalashib yon o'qlar hosil qiladi (organogenezning II davri). 20 kundan keyin (mart boshida) asosiy to'pgul o'qida differensiyalanish davom

etadiva bo'rtmachalarhosil bo'ladi ulardan keyinchalik gul elementlari rivojlanadi. Gullarning rivojlanishi dastlab shiddat bilan kechadi. Gul bo'rtmalari xosil bo'lgach 15-20 kun o'tkach, aprel oyi oxirida gul gmentlarining xammasi hosil bo'ladi. Gul differensiyasi konussimon bo'rtmaning yonlarining kengayishidan boshlanadi. Keyinchalik unda 5 ta gulkosacha barg bo'rtmalari hosil bo'ladi, ularning ichki tomonida gulkosacha barglari hosil bo'lib boshlanadi. Keyinchalik bo'rtmachaning o'rta qismidan changchilar rivojlanadi. Meva barglari gul elementlar hosil bo'lib boshlanganini 30 kunida shakllana boshlanadi.

Lagochilus inebrians to'pgulli ochiq tipdagi to'pgullar guruhiga kiradi (Tgoll, 1964). To'pgulning markaziy o'qining rivojlanishi ochiq tipda (rasimoz) bo'ladi.

To'pgulning morfologik taxlili to'pgulning asosiy va yon o'qlari uzoq vaqt o'sishi va to'pgulning yon elementlari hosil qilishi mumkinligini ko'rsatdi.. Gultojbarglari 5 ta, birikib o'sgan. Gultojbarglari 5 ta birikib o'sib, 2 lavni hosil qilgan. Ustki labi 2 ta, pastki labi 3ta gultojbargning birikib o'sishidan hosil bo'lgan, changchilari 4ta, ulardan 2tasi qisqa chang iplariga ega. Changchilar gultojbargning o'rtasida birikib o'sgan. Urug'chisi bitta. 2 meva bargchalarning qo'shilib o'sishidan hosil bo'lgan.

Shonalish fazasi nam ko'p bo'lgan yillarda aprelning 3chi dekadasida, uruq kelgan yillarda mayning boshida boshlanadi. Shonalari 2,3 ,8 tagacha mutavkalarga tuplangan bo'ladi. Dastlab barg qo'ltig'ida 1-2 bo'rtmachalar hosil bo'ladi, keyinchalik ko'payadi, shonalar soni o'simlik yoshi va iqlim omillariga boglik va o'simlik yoshi katta bo'lsa, shona soni shunchalik ko'p bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Алтыбоева М., Норкулова З., Худойбердыева З. СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ SALVIA SUBMUTICA //Иновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 10-11.

2.G'ulomovna, O. M., INTESTINAL, S. B. M. V. O., & MICROFLORA, I. CHILDREN//Nauchnyy Fokus.-2023. T, 1, 279-282.

3. Altyboeva M. G., KISHECHNUY B. N. S. S. V. N. A., MIKROFLORU U. DETEY//Nauchnyy Fokus.-2023 //T. – T. 1. – С. 109-112.

4. Sadriddinovna A. S., Gulyamovna A. M. The relevance of the meaning of plantain in folk medicine //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – Т. 19. – С. 49-50.

5. Alikovna J. F. et al. SALVIA O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 217-218.

6. Mavsuma O. medicinal properties of sea buckthorn (Hippophae Rhamnoides L.) OIL PLANT //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 1-3.

7. G'ulomovna O. M., Sobirjonovna B. N. MODERN VIEWS ON INTESTINAL MICROFLORA IN CHILDREN //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 279-282.

8. Жураева Б. Г., Пулатов Ф. А. ИЗГОТОВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ, КОСМЕТИКИ И БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ДОБАВОК И ОБЕСПЕЧИВАНИЕ ИХ КАЧЕСТВА //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 20. – №. 1. – С. 120-123.